

2015, № 2 (90)

# ILMIY AXBOROTNOMA

SCIENTIFIC REPORTS  
OF SAMARKAND STATE UNIVERSITY

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК СамГУ**

**GUMANITAR  
FANLAR SERIYASI**

- TARIX

- FALSAFA

- SOTSILOGIYA


- FILOLOGIYA

- PEDAGOGIKA

- PSIXOLOGIYA

- IQTISODIYOT

- HUQUQSHUNOSLIK





ISSN 2091-5446

# ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC REPORTS

2015-yil 2-son (90)

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix. Falsafa. Sotsiologiya. Filologiya. Pedagogika.  
Psixologiya. Iqtisodiyot. Huquqshunoslik.

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro'yxatdan o'tish tartibi 09-25.  
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro'yxatiga kiritilgan. Tarix, falsafa, sotsiologiya, filologiya, pedagogika va psixologiya yo'nalishlarida chop qilingan maqolalar doktorlik dissertatsiyalari himoyasida hisobga olinadi.

BOSH MUHARRIR  
BOSH MUHARRIR  
O'RINBOSARLARI:

A. R. XALMUXAMEDOV, f.-m. f. d., professor

M. Q. QODIROV, f.-m. f. d.,

A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI:

M. X. ASHUROV - O'zFA akademigi  
M. M. KAMILOV - O'zFA akademigi  
B. J. AXMEDOV - f.-m. f. d., professor  
A. S. BEGMATOV - fals.f. d., professor  
T. M. MO'MINOV - O'zFA akademigi  
X. I. IBRAGIMOV - ped.f.d., professor  
X. T. MAMATOV - yu.f.d., professor  
U.S. SALIXBAYEV - f.-m.f.d., professor  
E. G. G'OZIYEV - psixol.f.d., professor  
- «Zarafshon» gazetasi  
F.I. TOSHEV bosh muharriri  
T. SH. SHIRINOV - tar.f.d., professor  
M. Q. QURONOV - ped.f.d. professor  
B. O. TO'RAYEV - fals.f.d., professor

GUMANITAR FANLAR SERIYASI  
TAHRIRIYAT HAY'ATI:

Sh. S. G'AFFAROV - tar.f.d., professor  
I. M. SAIDOV - tar.f.d., professor  
O. M. G'AYBULLAYEV - fals.f.d., dotsent  
N. SH. SHODIYEV - ped.f.d., professor  
B. Y. YO'LDOSHEV - fil.f.d., professor  
Sh. S. SAFAROV - fil.f.d., professor  
D. I. SALOHIV - fil.f.d., professor  
S. A. KARIMOV - fil.f.d., professor  
M. Q. PARDAYEV - i.f.d., professor  
M. M. MUXAMMEDOV - i.f.d., professor  
B. X. TO'RAYEV - i.f.d., professor  
Sh. R. BARATOV - psixol.f.d., professor  
B. Q. QODIROV - psixol.f.d., professor  
Z. Yu. MUQIMOV - yu.f.d., professor  
F. M. SHODMONOV - yu.f.d., professor

## Mas'ul muharrir

J. Ya. YAXSHILIKOV - fals.f.d., professor  
Kordinatorlar:  
A. SH. YARMUXAMEDOV - f. - m.f.n.  
D. A. NASIMOV - i.f.n.

## Muharrirlar:

B. E. ERGASHEV - t.f.n., dotsent  
R. TOSHQVATOVA - fals.f.n., dotsent  
N. U. ARABOV - i.f.n., dotsent  
U. U. QOBILOV - fil.f.n., dotsent

Obuna indeksi - yakka tartibdagi obunachilar uchun - 5583,  
tashkilot, korxonalar uchun - 5584

## MUNDARIJA/ CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

TARIX / HISTORY		
<i>Abriyev R. B.</i>	XXI asrda Zarafshon vohasi tarixiy markazlarida shaharsozlik amaliyoti Town building practice in the historical centers of Zarafshan valley in the 21 <sup>st</sup> century.	5
<i>Ametov T.A.</i>	«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Qoraqalpog'iston Respublikasi kengashi faoliyatidan Activity of Karakalpak Republic council the civic movement of youth of Uzbekistan "Kamolot"	9
<i>Makhamova N.</i>	Политические и социально-экономические преобразования советской власти в Туркестане и их влияние на состояние социальных страт. Political and social-economic reorganizations of the Soviet power in Turkestan and their influence to the state of the social stratas.	13
<i>Ergashev B.</i>	Кочевое население Туркестана в делопроизводственных материалах канцелярии генерал-губернаторства. Nomadic population of Turkestan in office-work materials of the Governor's Office.	17
<i>Matboboyev B.H., Xoliqulov R.Sh.</i>	Davan (Farg'ona) podsholigi shaharlari haqida ayrim mulohazalar Some discussions of the cities of Davan (Fergana) kingdom	21
<i>G'oyibov B.S.</i>	Sug'd konfederasiyasining Kabudon hukmdorligi tarixiga doir Kabudan included in the structure of Sogd confederation	26
<i>Qobulov E.</i>	Rossiyaning sharq davlatlari bilan tashqi savdo aloqalarida Surxon vohasining o'rni Place of Surhkhan valey on the Russian relationship with Eastern countries	29
<i>Raximov B.E.</i>	Kaspiyorti armanlari tarixidan (XIX asr oxiri -XX asr boshlari) From history of Caspian Armenians (the second half of XIX - the beginning of the XX centuries)	32
<i>Toyirov A.E.</i>	O'zbekistonda mustabid sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatlar tarixidan (Samarqand viloyati misolida) The contradiction against soviet power in Uzbekistan (Samarkand region's example)	36
<i>Djumanov S.A.</i>	O'zbekistonda reproduktiv salomatlikni saqlash tadbirlari va ularning natijalariga doir About events of reproductive healthcare of the population and their results during independence years.	39
<i>Akbayeva Z.J.</i>	Turkiston o'lka musulmonlari byurosining o'lka siyosiy hayotidagi ishtiroki Participation of Muslim bureau of Turkestan in political life of the region.	42
<i>Sagdiyev X.</i>	Aqidaviy asarlar nomlanishining tadjrijiy bosqichlari Successive stages of naming the works on theology	45
<i>Tuxtaeva M.C.</i>	Профессиональные объединения в решении проблем повседневной жизни художников Узбекистана в 1930-1950е годы Professional associations in solving everyday life problems of artists of Uzbekistan in 1930-1950's.	49
FALSAFA / PHILOSOPHY		
<i>Tulaganova M.K.</i>	Диалектика- как метод познания в философии аль-Фараби Dialectics as method of the cognition, in philosophy al-Farabi	53
<i>Negmatova D.I.</i>	Globalashuv va yoshlar ma'naviy shakllanishining ba'zi masalalari Some problems of globalization and spitrual formation of youth.	56
<i>Yaxshilov J.J.</i>	Falsafa fuqarolik huquqining metodologik asosi sifatida Philosophy - methodological foundation of civil law	59
<i>Ochilov J.A.</i>	Texnogen sivilizatsiyaning vujudga kelishi va davrlashtirish tamoyili The formation of technogen civilization and factors of dealing periods	62

<i>Yazdanov U.T.</i>	Jamoatchilik fikri shakllanish koeffitsiyentini oshirishning rentabellik darajasi The level of profitability during the growth factor formation of public opinion	66
<i>Olloyorov M.</i>	Badiiy tarbiya - san'at sotsiologiyasining praktsiologik vazifasi Художественное воспитание как праксиологическая функция социологии искусства Artistic upbringing as practical function of sociology of art	71
<b>FILOLOGIYA / PHILOLOGY</b>		
<i>Tohirov S.Q.</i>	Xoju Kirmoniyning «Ravzat ul-Anvor» dostoni The poem "Ravzat al-Anvar" Xadju Kirmani	74
<i>Sanaqulov U.S.</i>	Tarjimon va tarjimashunoslik (Taniqli tarjimashunos olim G' aybullo Salomov fikrlari talqini) Translator and translation (About scientific research of a famous translator Gaybullo Salomov)	77
<i>Razzoqov A.A.</i>	Navoiy g'azallarida irfoniy haqiqatlar va ularning epik she'riyatdagi talqiniga doir Essence of the notion "enlightenment" in verse Alishera Navoi and his interpretation in epic genre	80
<i>Umurova G.H.</i>	Zulfiya she'riyatida ayriliq motivi badiiy talqini Parting and victory motif over it in the poetry of Zulfiya	84
<i>Бабакулов И. Т.</i>	Словообразовательные системы русского и узбекского языков в когнитивно - сопоставительном аспекте	86
<i>Fazilova M. B.</i>	Bugungi o'zbek dramaturgiyasida zamondosh obrazi Contemporary image in current Uzbek dramaturgy	90
<i>Azizova G.</i>	The role of idioms in the improvement of the students language skills Oliy o'quv yurtlari talabalarida til malakalarini takomillashtirishda idiomalarning roli	93
<i>Насруллаева Н.З.</i>	Концепты родства и родственных отношений в английской фразеологической системе Ingliz tili frazeologiyasi tizimida qarindoshlik kontseptlarning ifodalanishi.	96
<i>Мамаджанова Л.</i>	Градация как стилистическое явление современного английского и русского языков. Gradation as a stylistical phenomenon in modern English and Russian language	100
<i>Jabborova D.</i>	Cho'lponshunoslikdagi ilk talqinlar First interpretations of Chulpan scholarship	103
<i>Yarashov Sh.</i>	Amir Xusrav Dehlaviy g'azallarida «dil» timsolining sharhi va etimologiyasi Comments and etymology of the symbol «soul» (heart) in gazelles of Hisrav Dehlaviy	106
<i>Toshpulatov D.A.</i>	Ingliz tilida tijorat leksikasini ifodalashning sintaktik vositalari Expressing commercial lexeme by syntactic means in the English language	109
<i>Tojiev Yo., Sharipov F.</i>	So'z tarkibi, o'zak morfema, negiz, affiks(qo'shimcha) haqida Word structure, the root of the word, prefixes and suffixes	111
<i>Sayfullayev A. I.</i>	Sintaktik qurilmalarda predlog ma'nosining ifodalanishi Expressing the meaning of preposition in Syntactical Constructions	115
<i>Yusupova O.S.</i>	Badiiy matnda atov gaplarning lingvopoetik xususiyatlari Lingvo-poetic peculiarities of nominative sentences in artistic texts	118
<b>PEDAGOGIKA/PEDAGOGICS</b>		
<i>Mavlonova K.</i>	Ona tili darslarida badiiy matn ustidagi ishlarni tashkil etishning pedagogik texnologiyasi Pedtechnology in the organization of the work on fiction texts at the lessons on native language.	120
<i>Shodiyev N.Sh,</i>	Bo'lajak kichik mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda	

ONA TILI DARSLARIDA BADIY MATN USTIDAGI ISHLARNI  
TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI

K.Mavlonova

TDPU katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

*Ushbu maqolada ona tili darslarida badiiy matn ustidagi ishlarni tashkil etishning pedagogik texnologiyasi yoritiladi. Maqoladan ko'zda tutilgan maqsad, o'quvchilarni dars maboynida faol ishlashga undash, mustaqil ko'nikmalarini shakllantirish, ilmiy fikrlashga, o'quv faniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulotlar mobaynida ularning faolligini oshirish orqali ta'limning sifat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.*

**Kalit so'zlar:** pedagogika, texnologiya, insert, badiiy tahlil, badiiy matn, lingvistik, tahlil.

Zamonaviy pedagogik texnologiyaning mazmuni yoshlarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularni bilishga qiziqishlarini kuchaytirish, nazariy qoidalarni yodlatishga emas, balki amaliyotda joriy eta olishga o'rgatish, nostandart tafakkur qilish, fikrlar rang-barangligi, turli fan maqsadlarini uyg' unlashtirish, ya'ni integratsiyalash demakdir [1].

Darsda mashq materiali bo'lmish badiiy matnning til xususiyatlarini o'rganish ona tilidan o'tiladigan asosiy mavzu materiallari bilan integratsiyalanadi, ularga qo'shimcha ravishda leksik va grammatik vositalarning badiiy qiymat yaratishdagi ahamiyati ochiladi.

Darsda badiiy matn keltirilgan mashqda ko'zda tutilgan asosiy shartlar, topshiriqlar bajarib bo'lingach, qisqa fursat ajratilib, ushbu matnning yaqqol ajralib turgan biror til xususiyati (biror bo'yoqdor so'z, emotsional-ekspressiv grammatik vosita yoki badiiy tasvir vositasi) ustida ishlanadi. Bu ish ham yangi pedagogik texnologiya asosida tashkil etiladi. Dars yaxlit jarayon sifatida loyihalanganidek, uning har bir bosqichi, bajariladigan har bir ish turi ham loyihalalanishi, ya'ni maqsadi, vazifasi, natijasi ko'zda tutilishi kerak bo'ladi. Badiiy matnning biror til xususiyatini o'rganishdan qanday maqsad ko'zlanishi mumkin?

Birinchidan, badiiy matn ustidagi ishlar yakunida o'quvchilar uning badiiyligini, ta'sirchanligini, shiradorligini ta'minlagan til hodisalari: so'z va grammatik vositalarni, sintaktik qurilmalarni ishlatishdagi yozuvchining mahoratini anglab yetishlari, o'zlari uchun tegishli xulosalar chiqarishlari, badiiy matn yaratish bilan bog'liq topshiriqlarni bajarayotganda esa olgan bilimlaridan, hosil qilgan ko'nikma va malakalaridan foydalanishlari kerak.

Ikkinchi tomondan, badiiy matnning til xususiyatlariga diqqat ko'chganda, o'quvchilar til hodisasining lingvistik mohiyatiga emas, asar tilini o'rganish orqali uning badiiy matn yaratishdagi vazifasi haqida o'ylay boshlaydilar, badiiy matn yaratish vazifasi topshirilganda, shu bilim, ko'nikma va malakalarini ishga soladilar.

Yangi pedagogik texnologiya unsurlaridan biri hamkorlikda ta'lim olishdir. Bunday ta'lim guruhlarida ishlash jarayonida samaraliroq amalga oshadi. Albatta, mashq materiali bo'lmish badiiy matnning til xususiyatlari ustidagi ishlarning o'zi uchun sinf o'quvchilarini guruhlariga bo'lish vaqt isrofgarchiligiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ular darsning avvalgi bosqichida boshlangan guruhlar ko'rayotgan masalalar sirasiga qo'shib yuborilgani ma'qul.

O'qituvchi guruhlariga barcha uchun umumiy bir badiiy matn yuzasidan undagi badiiyligni ta'minlagan til hodisasining tanlanish sababini izohlash vazifasini topshiradi. Masalan, 6-sinf [2]da "Ona tili" darsligidagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarning talaffuzi va imlosidagi farqlarni tushuntirish talab etilgan mashq materiali bo'lmish quyidagi matn havola qilinadi:

– *Yonboshingizdagi ulug' vor tog' lar, jonning huzuri, g' ir-g' ir shaboda... Sut, qimiz, serob, – hazillashdi Komila. – Jannat-ku bu hayot, o'zim cho'pon bo'lar edim, iloji bo'lsa, rost aytyapman.*

*Cho'ponlar gurillab xoxoladilar.*

*Siyrak soqol, burushgan yuzli, qotma gavdali cho'pon chol e'tiroz qildi:*

– *Ehe, Komilaxon, yoshsiz, bilmaysiz, bu hunarning ham mashaqqati zo'r, og'ir mehnat. Qo'ylar misli chaqaloq, parvarishning talabgori ular. Tog' da bo'ronlar, sellar, toshqinlar, shamollar... Oho, ofat behad ko'p. Hamisha ziyraklik lozim. (Oybek)*

Guruh a'zolariga asarda yozuvchi nima uchun ayni ulug' vor, jonning huzuri, zo'r, misli chaqaloq, behad kabi so'z va so'z birikmalarini ishlatganini muhokama qilish taklif etiladi. Muhokama Pinbord usulida tashkil etilishi mumkin. Har bir guruh a'zolari o'z fikrlarini muhokama qiladi, guruh sardori xulosa-fikrni ma'lum qiladi. Qaysi guruhning xulosasi mukammal va to'g'ri bo'lsa, shu guruh g'olib deb topiladi.

Barchamizga ma'lumki, Insert usuli avvalgi bilimlarni faollashtirish va matnda belgilash uchun savollarning qo'yilish muolajasi hisoblanadi. Shu bilan birga, matn bilan ishlash jarayonida ta'lim oluvchiga o'zining mustaqil bilim olishini faol kuzatish imkonini ta'minlovchi kuchli vositadir.

Badiiy matnning til xususiyatlarini o'rganish jarayonida ushbu usuldan qanday foydalanishni 6-sinf "Ona tili" darsligidagi 84-mashq [2] orqali ko'rsatib o'tamiz:

*Gul bag' rini nasim tildi - to'kildi,*

*Saboga hikoyat qildi - to'kildi.*

*Falak ishiga boq: bir haftada gul*

*Chiqdi, g' unchaladi, kuldi - to'kildi...* (Umar Xayyom)

O'qituvchi har bir guruhga quyidagi jadval va matni tarqatadi, uni o'qib chiqishni va insert usulidan foydalanib, matn chetida belgilar qo'yishni taklif etadi. Ishning borishini kuzatadi.

Matnda belgilash tizimi:

√	+	-	?

(√) - men bilaman deganni tasdiqlovchi belgi; (+) - yangi axborot belgisi; (-) - mening bilganlarimga zid belgisi; (?) - meni o'ylantirib qo'ydi. Bu bo'yicha menga qo'shimcha axborot kerak belgisi.

O'tkazilgan tajribada natijalar quyidagicha bo'ldi: o'quvchilar jadvaldagi (√) - belgisi qatoriga *gul bag' ri, to'kildi, falak, chiqdi, g' unchaladi, sabo* so'zlarining ma'nolarini bilishlarini belgilashdi. (+) - belgisi qatoriga she'rning 2-qatoridagi *to'kildi* so'zini, (-) belgisi qatorini bo'sh qoldirib, (?) - belgisi qatoriga *nasim tildi, saboga hikoyat qildi, kuldi* kabilarni belgilashdi. Guruh sardorlari natijalar taqdimotini o'tkazdilar. O'qituvchi olingan axborotlarni umumlashtirdi va sharhladi. (?) - belgisi qatoridagi "o'quvchilarni o'ylantirib qo'ygan" masalalarga alohida to'xtalib, o'quvchilarning adabiyot fanidan olgan bilimlariga bog'liq holda izohlab berdi. Guruhlar ishini badiiy matnning til xususiyatlarini e'tiborga olganlik darajalariga ko'ra baholadi. O'qituvchi o'zi uchun mazkur yo'nalishdagi kelgusi ish istiqbollarini belgilab oldi. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, "Insert" jadvali mustaqil o'qish vaqtida olgan ma'lumotlarni, eshitgan ma'ruzalarni tizimlashtirishni ta'minlaydi; olingan ma'lumotni tasdiqlash, aniqlash, chetga chiqish, kuzatish imkoniyatini beradi. Avval o'zlashtirgan ma'lumotlarni bog'lash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi [3].

Odatdagi ish usullaridan keskin farq qiluvchi bunday tahlil o'quvchini badiiy ijod sir-asrorlari bilan yaqindan tanishtirish uchun xizmat qiladi. Quyida ushbu yo'nalishda tashkil etiladigan yana bir mashq tahlilini ko'rib chiqamiz:

123-mashq[4]. Urush yillarida 15 ta bolani boqib tarbiya qilgan Mahkam aka tilidan berilgan hikoyani o'qing. Kesimlarni topib, ularga izoh bering.

*Yoshim bir yerga borib qolganida, yurtim boshiga kulfat tushdi. La'nati urush kattalargamas, begunoh norasidalarga ham changalini soldi. Qarab turolmadik. Baholi qudrat shulardan bir nechtasini bag'rimizga oldik. Endilikda qurbim yetib, ana shu toychoqlarga o'zim taqa bo'la olsam, shular toymay, qoqilmay, yiqilmay yurib ketsa, gurs-gurs bosgan qadamlarining ovozi quloqlarimga kirib tursa, dunyodan bearmon o'tardim. Niyatim shu! (Rahmat Fayziy)*

O'quvchilar mashq shartiga ko'ra vazifani bajarib bo'lganlaridan keyin matn ifodali o'qitiladi. Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilarga ko'chma ma'nodagi so'zlarni, iboralarni, o'xshatishlarni toptiradi. O'quvchilar ko'chma ma'nodagi so'zlar sifatida *bosh, changal, toychoq* so'zlarini ko'rsatadilar.

O'qituvchi: Matnda nima uchun *bolalar* demasdan *norasida* deyilgan?

O'quvchi: *Norasida* deganda yordamga muhtoj, ota-onasiz qolgan bolalar tushunilsa kerak.

O'qituvchi: *Urushning changali* deganda ko'z oldingizda nimalar gavdalandi?

O'quvchilar urushning changali bo'lmasligi, burgutning, ayiqning, odamning v.h.k.larning changali bo'lishi haqida fikr yuritishadi.

O'qituvchi: *toymay, qoqilmay, yiqilmay* so'zlarining qo'llanishi haqida fikringiz qanday? O'quvchilar harakatlari orqali ko'rsatib, izohlab berishadi. Bu kabi ishlardan so'ng matn yana bir marta ifodali o'qiladi, o'quvchilardan olgan taassurotlari so'raladi.

5-sinf "Ona tili" darsligi [4]da qo'shma so'zlar o'tiladigan 11-darsda 47-mashq uchun S.Barnoyevning asaridan parcha ketirilgan. Ushbu parcha yuzasidan loyihalar metodikasini qo'llash asosida, lekin dastlabki mashg'ulot bo'lgani uchun har bir o'quvchini yakka tartibda mushohadaga undash shaklida quyidagi ish turlari bajariladi: mazkur parchaning 1-gapiga (Astoydil xafa bo'lganimni ko'rgan buvam tushuntira boshladi) o'quvchilar e'tiborini qaratish va *astoydil* so'zining nima uchun tanlangani haqida ularni suhbatga tortish mumkin.

O'qituvchi: Kishi qanday xafa bo'lishi mumkin?

O'quvchi: Qattiq xafa bo'lishi mumkin.

O'quvchi: Yomon, juda xafa bo'lishi mumkin...

O'qituvchi: Yozuvchi nima uchun ayni *astoydil* so'zini tanlagan?

O'quvchi: *Astoydil* so'zining ma'nosi *yomon, qattiq, juda* so'zlarining ma'nosidan kuchli, chunki bunda kishi o'zining xafa bo'lganini harakat, imo-ishora bilan namoyon qiladi.

O'quvchi: Kishi qattiq xafa bo'lsa, yuzida xafa bo'lganlik alomati seziladi. *Astoydil* xafa bo'lsa, u o'zining xafa bo'lganini so'z bilan, harakat bilan ham ifodalaydi.

O'qituvchi: Gapdagi qaysi so'z ana shu harakatga ishora qiladi?

O'quvchi: Buvasi nabirasining xafa bo'lganini ko'radi. *Ko'rgan* so'zi xafa bo'lganlik harakat bilan ham namoyon qilinganini bildiradi. 47-mashq uy vazifasi bo'lganligi uchun yuqoridagi kabi ishlar 12-dars boshida (uy vazifasini so'rash bosqichida) o'tkaziladi. ("O'qituvchi kitobi" dagi dars ishlanmasida bu mashq tilga olinmagan.)

O'quvchilarga til hodisalarini ushbu yo'nalishda o'rganishga qaratilgan topshiriqlar berilishi o'quvchilarning so'zning ma'no jilolarini his qilish malakalarini oshirishga yordam beradi. O'quvchi yozuvchining so'z tanlashdagi mashqatli mehnatini tasavvur qila olgan taqdiridagina badiiy matnning qadriga yetadi. Y.Abdullayevning "So'z ishlatish haqida" degan maqolasida G' afur G' ulom yozuvchining so'z tanlash sohasidagi og'ir mehnatini quyidagi satrlarda ifodalaganligini ta'kidlaydi[4]:

Bir varaqqog'ozga besh so'z yozguncha,

Ming karra o'ylayman, toki bu

Sizday dono bola, o'g'il-qizlarim,

Bitta mo'ysafidni qilmasin kulgu.

Demak, tabiat tasviridagi, jamiyat hayotidagi, inson xislatlaridagi, san'at asarlaridagi go'zalliklar ming mashaqqatlar natijasida tanlangan so'z bilan ifodalanadi. «Badiiy ijodda hissiy bilish yetakchilik qiladi. Obrazlilik – uning asosiy xususiyati. Ifoda usulida esa badiiy til imkoniyatlari, turli badiiy tasvir vositalari, poetik ko'chimlar obrazlilikni ta'minlovchi asosiy unsurlardir». Ushbu vositalarni o'quvchilar badiiy asardan olingan parchadan ko'ra bilishlari va tasavvur qila olishlari lozim.

#### Adabiyotlar

1. Юсупова Ш. Дидактика-таълим методларини ишлаб чиқарувчи категория. Синтаксис ва уни ўқитиш муаммоларига бағишланган конференция материаллари. VI чиқиш. – Тошкент, 2012. – 13-бет.
2. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik/ N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, O.Nabiyeva. – Toshkent: «Tasvir» nashriyot uyi. 2009. – 30-bet.
3. Голиш Л.В., Файзуллаева Д.М. Педагогик технологияларни лойиҳалаштириш ва режалаштириш: Ўқув услубий қўлланма. Инновацион таълим технологияси серияси. – Тошкент: "Иктисодиёт" нашриёти, 2012.
4. Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik / Mualliflar: N.Mahmudov, A.Nurmonov va b. – Toshkent: "Ma'naviyat" nashriyoti, 2007. – 41-bet.
5. Абдуллаев Й. Сўз ишлатиш хақида // "Мақтабда ўзбек тили ва адабиёт ўқитишни такомиллаштириш масалалари" тўплами. – Тошкент: ЎзПФТИ, 1982. – 3-10-бетлар.
6. Кахрамонов Қ. Адабий танқиднинг методологик асослари. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2006 йил, 2-сон, 6-бет.

К. Мавлонова

#### Педтехнология в организации работы над художественным текстом на занятиях по родному языку

Данная статья описывает организацию и проведение уроков родного языка, основанных на новых пед технологиях.

Цель данной статьи заключается в том, чтобы при работе над художественным текстом, развить у студентов учебные навыки, научное мышление лингвистический анализ текста, углубить профессиональные знания и умения, тем самым повышать качество обучения.

**Ключевые слова:** педагогика, новые педтехнологии, художественный текст, художественный и лингвистический анализ

K. Mavlonova

#### Pedtechnology in the organization of the work on fiction texts at the lessons on native language

The present paper describes organization and conducting lessons of the native language, based on new pedagogical technologies. The purpose of the given paper is to work on fiction texts, to develop educational skills, scientific thinking, to deepen students professional knowledge, their theoretical and practical training and through it to increase the quality of education.

**Keywords:** pedagogics, new pedagogical technologies, a fiction text, fiction and lingvistic analyses